

KIMYO SANOATINING ATMOSFERAGA TA`SIRI

Ummataliyeva Mohlaroy Zokirjon qizi
Andijon Davlat Universtiteti 3-bosqich talabasi

Anotatsiya

Ushbu maqolada ishlab chiqilgan tavsiyalar asosan kimyo sanoati atmosfera havosiga zararli ta`siri va ularni bartaraf etish yo`llari, ekologiya va atrof muhitni zaralovchi omillari, kimyo sanoati ishlab chiqaradigan mahsulotlar va turlari, qaysi kimyo sanoati moddasi atmosferaga qanday va qay tartibda tasir etishi, undan insoniyat hayvonlar nafaqat atmosfera balki biosferaga ham jiddiy zarar yetishi ularning tahlillari, hulosalar va yechimlari haqida so`z boradi

Kalit so`zlar: azotli mineral o`g`it, amiakli selitra, sulfat kislotasi, plastmassa, neftni qayta ishlash, neylon tolasi, viskos, is gazi, metan.

THE EFFECT OF THE CHEMICAL INDUSTRY ON THE ATMOSPHERE

Abstract

The recommendations developed in this article are based on the harmful effects of the chemical industry on the atmosphere and ways to eliminate them, ecological and environmental pollutants, products and types of chemical products, how and in what order the chemical industry affects the atmosphere. Their analysis, conclusions and solutions show that humans and animals can cause serious damage not only to the atmosphere but also to the biosphere.

Keywords: nitrogen mineral fertilizer, ammonium nitrate, sulfuric acid, plastic, oil refining, nylon fiber, viscose, carbon monoxide, methane.

ВЛИЯНИЕ ХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА
АТМОСФЕРУ**Анотация**

Рекомендации, разработанные в данной статье, основаны на вредном воздействии химической промышленности на атмосферу и путях их устранения, экологических и экологических загрязнителях, продуктах и видах химической продукции, о том, как и в каком порядке химическая промышленность воздействует на атмосферу. анализ, выводы и решения показывают, что человек и животные могут нанести серьезный ущерб не только атмосфере, но и биосфере.

Ключевые слова: азотные минеральные удобрения, аммиачная селитра, серная кислота, пластик, нефтепереработка, нейлоновое волокно, вискоза, окись углерода, метан.

Har yili insonlar extiyoji uchun juda ko'p kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqariladi. Kimyo sanoati rang-barang kimyoviy moddalarni-kislotalar, ishqorlar, tuzlar va boshqa organic moddalarni mineral o'g'itlar, zaharli himikatlar, polimerlar, sintetik tolalar, erituvchilar smollar, bo'yoqlar, loklar, jihozlar asbob uskunalar, xo'jalik buyumlari, shuningdek sanoatimizga as qotadigan ko'pdan-ko'p vositalarni ishlab chiqaradi. Kimyo sanoati ishlab chiqaradigan mahsulotlar, mahsulot olish uchun foydalaniladigan hom ashyolar, shuningdek texnologik jarayonlar inobatga olingan holda bir necha tarmoqqa bo'linadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Hozirgi kimyo sanoati korxonalarini yoki ishlab chiqish birlashmalari alohida-alohida korxonalardan iborat bo'lgani bilan ular bir-biri bilan uzviy bog'langanlar. Shuning uchun ham kimyo sanoatida paydo bo'ladigan chiqindilarning kimyoviy tarkibi rang-barang bo'lib ular sifat va miqdor jihatdan farq qiladi. Bu haqida bir qator ilmiy adabiyotlar keltirib o'tilgan. Hususan: Otakuziev T.A., A.A.Ismatov, N.P.Ismoilov, F.M.Mirzaev "Noorganik metallar kimyoviy texnologiyasi" T."Uzbekiston" 2002, Lopes, J. (2015). "Ifloslanish va kimyoviy sifat" adabiyotlarida atroflicha fikr yuritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ishning uslubiy asosi tadqiqot muammosini hal qilish, tizimli tahlil qilish, ekspert baholari va boshqa usullar yordamida kerakli ma'lumotlarni olish bo'yicha aniq, mavjud baholar va fikrlarni o'rganish edi.

Tahlil va natijalar.

Kimyo sanoatining eng yirik tarmoqlaridan biri azotli mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi korxonalaridir. Bu korxonalar ammiak, fosforli tuzlar, sulfat kislotasi ishlab chiqaradi. Bu tarmoq korxonalarida foydalaniladigan hom ashyolardan kaliy o'g'itlar, ohak, fosforidlar olinadi. Kimyo sanoati tarmoqlariga kiradigan korxonalardan sintetik kauchuk, xlor, xlorli ohak toshlar, kislotalar, xlorli birikmalar, plastmassa va suniy smollar lok bo'yoqlar zararli kimyoviy moddalar, neft kimyo mahsulotlari va yana boshqa kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini ko'rsatish mumkin.

Ammiak ishlab chiqarish asosida vodorod va azotni sintez qilish reaksiyasi tashkil qilinadi. Mazkur reaksiya yuqori bosimda hamda yuqori darajali haroratda kechadi. Bunda hom ashyo sifatida tabiiy koks gazidan foydalaniladi. Sanoat miqyosida ammiak olish jarayonida atmosfera havosi korxonalardan chiqadigan is gazi, ammiak va metan kabi tajavvuzkor omillar bilan ifloslanadi.

1 tonna ammiak ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan chiqindilardan ammiak-100 kg, metan-45 kg, is gazi-100 kg bo'lishi qayd qilingan. Shuningdek, boshqa regeneratsiya

sexlarida amiak-105 kg, metan-45 kg miqdorida ajralib chiqib, atmosfera havosini bug`laydi.

50-70%li azot kislotasi ishlab chiqarishda ammiak, katalizatorlar azot oksidiga aylantiriladi va suv bilan absorbsiya qilinadi. Mazkur jarayon 3.7,7.3, va 9 atmosfera bosimida kechadi. Azot kislotasi ishlab chiqarishda havoga azot oksidlari va azot kislotasining bug`i uchib chiqadi. Hisoblarga qaraganda, ishlab chiqarilgan 1 tonna mahsulotga 25-27,5 kg chiqindi to`g`ri keladi.

Sanoat miqyosda sulfat kislotasining aksariyat qismi kontakt yo`li bilan olinadi. Bunda oltingurgurt asosiy hom ashyo xizmatini o`taydi. Sulfitli ma`danlar kislota olishda asosiy manbalardir.

O`zida oltingurgurt saqlaydigan manbalar kuydirilganda yoki eritilganda hosil bo`lgan gazlardan hom ashyo sifatida foydalaniladi. Sulfit kislotasini ishlab chiqarishda havoga sulfid angdridi va sulfid kislotasining bug`I ko`tarilishi mumkin.

Mineral o`g`itlar ishlab chiqarish davomida juda ko`p kimyoviy moddalar olish ko`zda tutiladi. Jumladan, ammiak, azot kislotasi, ammiakli selitra, mochevina, ammoniy sulfat, sulfat kislotasi, superfosfat, ammofos, antroammafoska va boshqalar olinadi. Tajavvuzlor omil esa asosan neytrallash jarayonida hosil bo`ladi.

Plastmassalar ishlab chiqarishda atmosfera havosini ifloslantiruvchi obyektlar reaktorlar, manomerlar, shuningdek organik erituvchilar saqlanadigan omborlardir.

Hullas, kimyo sanoati korxonalarini gigenik nuqtai nazardan ekologik tizimlarni buzuvchi, butun mavjudot, shu jumladan inson va inson va hayvonlar hayoti uchun mutloq zaharli chiqindilarni havoga chiqaradigan manbalardir. Kimyo sanoati ajratadigan chiqindi moddalar ta`sirchanligi, xavfliligi va asoratliligi bilan ajralib turadi.

Neftni qayta ishlash zavodi o`z ishlab chiqarish ko`lamlari va quvvatiga ko`ra yiliga 219 ming tonna is gazini atmosferaga chiqarib tashlaydi yoki sutkasiga 600 tonna chiqindilar bilan havoni buzadi. Mazkur zavoddan 2,5 km narida yashaydigan odam terisida, 20 km uzqolikka olingan havo na`munasi tarkibida is gazi borligi aniqlangan. Neftni qayta ishlash korxonalarini atmosfera havosiga turli uglerodlar, vadarod sulfid, sulfid angdrid, azot va karbonad angdridi, aldegidlar, ammiak va boshqa birikmalarni chiqarib tashlaydi.

Neft-kimyo korxonalariga sintetik kauchok ishlab chiqarish korxonalarini ham kiradi. Sintetik kauchok ishlab chiqarishda atmosfera havosiga uchuvchan manomerlar va erituvchi moddalar-divinil, toluol, aseton va boshqa birikmalar uchib chiqib havoni zaralashi mumkin.

Plastik massalar olishda polimerizatsiyalash jarayonida fenol va amin moddalari, plastifikatorlar, mahsulotlarni yumshatuvchi, reaksiyani jadallashtiruvchi ditiokarbomatlar, tiuram, sulfenamidlari, tiazol, guanidine hamda aminlar, efirlar, organik kislotalar ajraladi.

Yuqorida keltirib o`tilgan ayrim moddalar havoni jiddiy zaralaydi va ular sanoat korxonalaridan tinimsiz va to`xtovsiz chiqindi sifatida chiqariladi.

Xulosa va takliflar

Sanoat boshqa texnik tuzilmalar singari, atrof- muhitga tabiiy tizimlar parametrlarining o`zgarishiga bevosita ta'sir qiladi. Sanoat korxonalarini loyihalashtirish va ishlatish uchun ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan eng muhim t ahamiyatga ega. Ekologik xavfsizlik sanoat korxonalarini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalarning asosiy ko`rsatkichlaridan biridir.

Kimyo sanoati ekologik xavfsizligi (uning ekologik jihatdan xavfsiz holati) muhandislik inshootlari va konstruksiyalari tomonidan shakllantirilgan korxonalar atrofidagi hududlarning tabiiy muhitining minimal zararli ta'sirini va ifloslanishini va ularning ta'sirini ta'minlash qobiliyatini anglatadi. Kimyo sanoatining ekologik jihatdan qulay holati quyidagi ko`rsatkichlar:

1. Kimyo sanoati inshootlarining texnik holati.
2. kimyo sanoati korxonalari ifloslatish darajasi.

Kimyo sanoati korxonalari ekologik xavfsizligi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko`rsatadigan texnik yechimlarni saqlash uchun loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va qo'llash orqali erishiladi, bu esa aholi salomatligiga zararli ta'sir ko`rsatmaydi, tabiiy muhitda qaytarilmas o`zgarishlar, odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy yashash sharoitlari yomonlashuviga olib kelmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otakuziev T.A., A.A.Ismatov, N.P.Ismoilov, F.M.Mirzaev "Noorganik metallar kimyoviy texnologiyasi" T."Uzbekiston" 2002,
2. Lopes, J. (2015). "Ifloslanish va kimyoviy sifat"
3. Sanz, A. (2014). *Organik kimyo sanoatining xomashyolari, zaxiralari, energiya ta'minoti va tovarlari*. Valladolid Universitetidan 2019 yil